



TAFAKKUR TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIKADAGI O'RNI

Akbarova Feruza Uktamjonovna
QDPI tayanch doktaranti

Annotatsiya. Ushbu maqola pedagogik tafakkurni tushunishga imkon beradi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va to'laroq aks etadi. Biz sezgi, idrok vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo'lmagan narsa yoki hodisalarni, narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog'lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz.

Kalit so'zlar: tafakkur, bilish, tushuncha, zamonaviy ta'lim, o'qituvchi, talaba, o'quchi, tadqiqot, pedagogika, psixologiya, shakillanish, fikr.

ПОНЯТИЕ МЫШЛЕНИЯ И ЕГО МЕСТО В ПЕДАГОГИКЕ

Абстрактный. В данной статье дается понимание педагогического мышления. Реальность более глубоко и полно отражается в мышлении, восприятии и воображении. Мы можем узнать о вещах и явлениях, которые мы не можем узнать посредством интуиции или восприятия, о свойствах вещей и явлений, а также об их связях и отношениях посредством мысли.

Ключевые слова: мышление, знание, понимание, современное образование, учитель, ученик, обучающийся, исследование, педагогика, психология, формирование, мысль.

THE CONCEPT OF THINKING AND ITS PLACE IN PEDAGOGY

Abstract. This article allows us to understand pedagogical thinking. Reality is reflected in thinking, perception and imagination, relatively deeper and more fully. We can learn about things or phenomena that we cannot learn through intuition and perception, the properties of things or phenomena, their connections and relationships through thinking.

Keywords: thinking, knowledge, understanding, modern education, teacher, student, learner, research, pedagogy, psychology, formation, thought.

Kirish. Jahon pedagogikasi silsilasida o'qituvchi faoliyatiga nisbatan talabar zamon, ijtimoiy iqtisodiy hayotga bog'liq xolda ta'lim tizimini o'zgartirish, mutaxassisning pedagogik vakolatiga zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining ajralmas sifati uning pedagogik tafakkuriga yuqori talablarni qo'yadi. Pedagog bu jamiyatimizda eng muhim shaxs

hisoblanadi. Pedagog fikri, tushunchasi, olamni, insonni, yangiliklarni anglashini nutqida aks ettirib bevosita ta'lim oluvchilarga uzatadi. O'z o'rnida bundan baxramand bo'lgan talabalar hulolarini atrofida qilarga yoyadilar. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak pedagogning tafakkuri so'g'lom, aniq va ishonarli bo'lishi lozim.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchini o'z o'zini baxolashi, tanqidiy fikr yurita olishi, faoliyatini rivojlantirib borishi, his tuyg'ularni taxlil qila olishi, o'zgarishlarga nisbatan reaksiyasi, foydalanish samaradorligini tadqiq qila olishi, jarayonlarga nisbatan munosabati, akademik va shaxsiy muoffaqiyatni oshib borishiga hizmat qiladi. Fikrlarini shakillantirish va o'zlarini anglash imkonini beradi. "Oliy o'quv yurtidan keying ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2017 -yil 16-fevraldagi PF-4958-son Farmoni va 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qaror va farmonlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Pedagogik oily o'quv yurtlari bakalavryat talabalari, Qayta tayyorlov kursi ta'lim oluvchilar hamda malaka oshirish institutida 1 oylik dastur bo'yicha ta'lim olayotgan turli toifadagi pedagoglarimiz uchun umumiy pedagog tafakkur tushunchasini qo'llashimiz mumkin, lekin uning rivoji har davrda o'ziga hos tarzda o'sib boraveradi. Ijtimoiy iqtisodiy hayot balki siyosiy va diniy vaziyatlar dan ham kelib chiqqan xolda amalga oshiriladi. Nafaqat o'qituvchi tafakkuri yoshlarni barkamol inson bo'lib yetishishlarida ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi islohatlarni yanada kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim konsepsiyasida shaxsni bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyojini hosil qilish va uni o'qishga o'rgatishga, ichki tajribasi, his-tuyg'ulari, tafakkuriga katta e'tibor qaratilgan. Albatta xar bir ta'lim olayotgan talabaga kasbiy yo'nalganligidan kelib chiqqan holda ko'nikmalar shakillantiriladi va metodlar qo'llaniladi.

O'z - o'zini rag'batlantirishga yo'naltirilgan tanlovlar va dasturlarni tashkil etish pedagogik tafakkurni rivojlantirish mexnizmi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Aqliy o'sishi, qobiliyati, atrofda qilalar bilan munosabati ko'nikmasi shakillangan bo'lishi, layoqatlarini o'stirishning elementar vositalarinidan xabardor bo'lishlari kerak. Muloqatchanlikni shakillantirishlari asosiy maqsadga urg'u bera olishlari uchun o'qituvchilarda pedagogik tafakkur rivojlangan bo'lishi lozim. Bu bilan atrofda qil muommolarni ko'ra oladi, munosabat bildiradi, hal qilish yo'llarini qidiradi, takliflar ishlab chiqadi, baxolaydi, tanqid qila oladi, samarali yechim keltira oladi. Pedagogik tafakkurdan foydalanish ijodiy tashkiliy-pedagogik faoliyat bo'lib, uning yordamida ta'lim-tarbiya jarayonining istiqbolli va samarali uslubiyatini yaratish hamda raqobatbardosh zamonaviy kadrlarni tayyorlashga erishish mumkin ekan.

Tahlil va natijalar. S.Ataxanova sog'lom tafakkur muammosini o'rganib quyidagi fikrni bildiradi: "Sog'lom tafakkur insonning aqliy va hissiy faoliyatlari bilan bog'liq bo'lib, u sog'lom fikrga yo'naltirilsa sog'lom tafakkur shakllan adi. Aqliy faoliyat mavjud

bilim va malakalarni egallash vazifasi bo‘lib, hissiy faoliyat esa sog‘lom turmushga bo‘lgan hissiy munosabatni anglatadi. Muallif sog‘lom tafakkur tushunchasining psixologik, pedagogik va falsafiy mazmunini ochib bergan bo‘lsada, lekin uning tarkibiy komponentlarini aniq ajratib ko‘rsatmagan.

M.G.Davletshin, E.G.G‘oziyev, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, Sh.Shodmonova, J.Musayev, S.Ataxanovalar biz ko‘targan muammoni ya‘ni, fikrni tarbiyalash, mantiqiylik, ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrni ifodalash, mustaqil va sog‘lom tafakkurni shakllantirish muammolarini uyg‘unlashtirgan holda o‘z tadqiqotlarida yoritib berdilar.

Forobiy ta‘limotiga ko‘ra, tafakkur orqali inson materiyaning sezgilarga noma‘lum bo‘lgan tomonlarini, umumiy qonuniyatlarini, mohiyatini biladi, san‘at, ilm-fan to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘ladi. Forobiy tushunishni, bilishning mohiyatini, o‘qib – anglab olishni quruq yodlashdan ustun qo‘yadi va o‘quvchilarga tafakkurning umumiy qonun va qoidalarini anglatish nihoyatda muhim ekanligini yozadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Forobiyni ijodiy fikr yuritish, tafakkur xususiyatlari haqidagi fikrlari hozirgi davrga qadar ham ahamiyati buyukdir.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) – ta‘lim va tarbiya masalalariga chuqur qiziqqan. Insonning boshqa mavjudotlardan tafakkuri ajratishini ta‘kidlab o‘z g‘oyalarini ilgari suradi. Insonda tafakkurning mavjudligi va uni aql bilan ish korganligi uchun ham yerdagi barcha hayvonlar unga bo‘ysunadilar, aks holda inson eng kichik hayvondan ham o‘jiz bo‘lar edi.[1.B.24]

Xorijlik J.S.Trimingem, A.Shimmel, Idris Shoh, A.J.Arberri, M.Agatehrani, S.G.Safavi-Homami, S.S.Sidek, O.Omelli, F.B.Jihan-Artun kabi olimlar tomonidan Sharq ma‘naviy merosining bugungi kun taraqqiyotidagi o‘rni, uning inson tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati masalalari tadqiq etilgan. Markaziy Osiyoda XII asr oxiri – XIV asrning birinchi yarmida pedagogik fikrlar rivojini o‘rganishga bag‘ishlangan «Asrornoma», «Pandnoma», «Mantiq ut-tayr», «Ilohiynoma», «Bulbulnoma», «Ushturnoma», «Guliston», «Bo‘ston», «Axloqi Nosiriy», «Masnaviyi ma‘naviy», «Al-inson al-komil» («Komil inson»), «To‘tinoma», «Qissasi Rabg‘uziy», «Gulshani roz» kabi didaktik asarlardagi pedagogik fikrlar tashkil etadi. XII asr oxiri – XIV asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyodagi ijtimoiy hayot va ta‘lim-tarbiya jarayonlari hamda ushbu davrga tegishli ma‘naviy-ma‘rifiy qarashlarni (ta‘limiy-axloqiy, ong va madaniyat, tabiat, jamiyat va tafakkur qonunlari) o‘rganishning metodologik asoslarini (keng tadqiqotga jalb etish, ilmiy-pedagogik tahlillarini yaratish, tematik tasniflash) didaktik asarlarning (madh, debocha, dunyoning yaratilishi, mazmuni va tarkibi) strukturaviy hamda madaniyat, maktab va pedagogik qarashlar uyg‘unligi kabi germenevtik jihatdan takomillashtirish zarurati asoslangan.[2.B.34]

Tafakkur turli sohalarda turlicha namoyon bo‘ladigan chuqur ma‘noga egadir. Uning bialogik, Psixalogik, pedagogik, ijtimoiy, iqtisodiy, falsafiy hususiystlari mavjud hamda bular

bir biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Turlicha kishilarda tafakkur turlicha tarkib topgan va turlicha namoyon bo‘ladi.

Tafakkur inson bilish darajasining yuksak bosqichi hisoblanib uning yordami bilan atrof muhitga aloqador qonuniyatlar ochiladi, bunyodkorlik ishlari ro‘yobga chiqariladi, jamiyatning istiqbol rejalari yaratiladi, tabiatga nisbatan munosabat o‘rnatiladi.

Psixologiyada tafakkur – bizning olamimizni tashkil etuvchi, ongimizni shakillantiruvchi va rivojlantiruvchi, muammolarni hal qilish va samarali yechim topishni ta‘minlovchi deganidir.

Tafakkur inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fizialogik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o‘zaro munosabatidan iborat.

Ijtimoiy hayotda ta‘lim jarayoni va ichida odamlar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlar xam tafakkur yordamida namoyon bo‘ladi.

“Tafakkur” tushunchasini tahlil etish asosida uning quyidagi asosiy xususiyatlarga ega ekanligi haqidagi xulosaga kelingan: 1) tafakkur voqeahodisalarni aniq va umumlashgan holda aks ettirishga imkon beradi; 2) borliqni bilvosita aks ettiradi, ya‘ni inson o‘zlashtirgan tajribalariga tayangan holda yangi bilimlarni hosil qiladi. 3) ijodiy fikr yuritish va faoliyatdagi ijodkorlik inson tafakkurining muhim xususiyati hisoblanadi. 4) tafakkur til bilan bevosita bog‘liq. Chunki, fikrlashni, tafakkur yuritishni ideal va ijtimoiy hodisa sifatida baholash mumkin. Sababi u faqatgina til vositasida reallikka aylanadi. Natijada, barcha uchun tushunarli va bevosita qabul qilinadigan, his etadigan shaklga kiradi va insonlar o‘rtasida o‘zaro fikr almashish vazifasini bajaradi. Demak, til inson tafakkurining real voqelik kasb etishiga xizmat qiladi. Inson tafakkuri o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi va ma‘lum bir qonuniyatlarga asoslanadi. Tafakkurning tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish shakllari mavjud bo‘lib, ular fikr yuritish jarayonida namoyon bo‘ladi.

Biz bo‘lajak o‘qituvchilar deganda oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim oluvchi talabalarni tushunamiz. Yosh davrlari va pedagogik-psixologiyada bu davr o‘spirinlik davri deb nomlanadi. O‘spirinlik davri, asosan, unda mustaqil hayotning boshlanishi bilan xarakterlanadi. Hayotdagi bu o‘zgarishlar talaba shaxsiga, uni o‘zini anglashiga ta‘sir ko‘rsatadi. Talabalik davrida yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga nisbatan qiziqishlar ko‘lami tobora amaliy xususiyat kasb etadi. Shuningdek, mazkur yosh davrida sezgirlikning oshishi, kuzatuvchanlik darajasining yanada rivojlanib borishi, kuchli mantiqiy xotira va eslab qolishning shakllanishi hamda ijtimoiy munosabatlar ko‘lamining kengayishi bilan boshqa yosh davri xususiyatlaridan farq qiladi. Ushbu jihatlar talaba shaxsi va uning bo‘lajak mutaxassis sifatida shakllanishida yetakchi vazifani ado etadi. Talabaning mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish va munozaraga kirishish qobiliyatlari turli janrdagi adabiy asarlarni o‘qishi va fanlarni o‘zlashtirishi, tushunishi orqali amalga oshadi. Oliy ta‘limda o‘qish davomida tafakkurning rivojlanishi bilan birgalikda talabalarning nutq boyligi ham rivojlanadi.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo‘lsak vaziyatni to‘g‘ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni o‘z iroda kuchi bilan bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. Pedagogika fanlarini

o‘qitishda pedagogik tafakkurni uyg‘otish muhim o‘rin tutadi. Hozirgi zamon fanining juda ko‘p murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy jarayonlarni yanada chuqurroq o‘rganishni taqazo etmoqda. Bilish faoliyati sezish va idrok qilishdan boshlanadi va keyin tafakurga o‘tib ketishi mumkin. Tafakkur qilish bilan tashqi olamni bilish chuqurroq amalga oshiriladi. Qachon tafakkur faoliyati boshlanadi qachonki biz fikrlay boshlaymiz biz doimo fikrlaymiz qachonki vaziyat bizga tushunarli bo‘lsa, yetarli hamma ma’lumot va vositalarga ega bo‘lsak biz o‘ylaymiz. Tafakkur jarayoni muammo paydo bo‘lsa muammoli vaziyatda paydo bo‘ladi. Tafakkur ko‘pgina fan sohalari falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, pedagogika fiziologiya, kibernetika, bialogiyaning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Shu ma’noda pedagogik tafakkur ham pedagogik faoliyatning asosiy o‘rganiladigan sifati hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xolikov A. Pedagogik maxorat. -T.,2010
2. Umumiy Psixalogiya .T.,2018
3. Tafakkur “O‘zME.Tharfi (http://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20%20T%20harfi.pdf)
Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Karimova V. M.. Sunnatova R.I. “Mustaqil fikrlash”. - T.: SHarq. – 2000.
5. M.G.Davletshin va boshqalar. Ta'limning psixologik asoslari. O'quv qo'llanma – T.:
6. O'QITUVCHI. 1995-y.
7. E.G'.G'oziyev «Tafakkur psixologiyasi», T.: O'qituvchi. 1990-y.